

SUVNI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI



Jamshid Suvonqulov

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda suv resursini huquqiy muhofaza qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Suv, tabiat, ekologik muammo, yashil makon, mahalla.

O'zbekistonda ekologik xavf-xatarlarga qarshi kurashish davlat ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, bu borada strategik vazifalar belgilangan. Bunday vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-sonli Farmonida o'z aksini topgan. O'z navbatida ekologik qonunchilik izchillik bilan takomillashtirilmoqda.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda ekologik muammolarni hal etish borasidagi chora-tadbirlar yildan yilga yangicha sifat va mazmun kasb etmoqda. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan bir qator umummiy loyihalar¹ ("Yashil makon", "Yashil yillik" va h.k.) atrof muhitni nafaqat muhofaza qilish, balki uning tabora zaiflashib borayotgan tabiiyligini kuchaytirishga qaratilgan. Asosiy maqsad insonlarning hayotini "yashil makon"larda kechishini hamda ular yashash joylarining tabiiy jozibador bo'lishligini taminlashdan iborat. Ilgarilari ekologik muammolar bilan shug'ullanish faqat davlat siyosati, deb qaralgan bo'lsa, mustaqillik yillarida, ayniqsa Yangi O'zbekistonning rivojlanishi sharoitida, ular bilan shug'ullanish uchun fuqarolarga hamda fuqarolik jamiyatining barcha institutlariga bu borada keng imkoniyatlar ochib berilgan.

Ana shunday dolzarb ekologik muammolaridan biri suvdan foydalanish va muhofaza qilishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ishtirokiga oid ekologik muammolardir.

Jahon resurslari instituti prognoziga ko'ra, yaqin kelajakda suv tanqisligi muammosi kuchayib, yangi hududlarni qamrab oladi. Salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'lib-urbanizatsiya va iqtisodiy rivojlanishning tezlashishi, aholi sonining ko'ayishi va iqlim o'zgarishidir. Hisobotda aytilishicha, 2040 yilga borib dunyoning 44 ta davlati suv tanqisligining "juda yuqori" yoki "yuqori" darajasiga duch keladi. Hozirgi aytida jami 470 million kishi suv taqchilligi keskinlashgan mintaqalarda, 2,4 milliard kishi esa suv tozalash qurilmalari va drenaj tizimi orzulgicha qolayotgan o'lkalarda yashaydi. Sifatli ichimlik suvi yetishmasligidan jahonda yiliga o'n millionga yaqin kishi kasallanib, nobud bo'lmoqda².

Suvdan foydalanish va muhofaza qilishga oid ekologik muammolarni hal etish, uning xatarli ekologik tahsiriga qarshi kurashish har bir davlatda, shuningdek O'zbekistonda ham davlat tashkilotlariga, nodavlat notijorat tashkilotlarga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga muhim mashuliyatli vazifalarni yuklaydi.

Shu borada nodavlat notijorat tuzilmalarining ichida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining suvdan foydalanish va muhofaza qilishdagi ishtiroki alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Mahlumki, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga binoan, shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini atrof muhitni muhofaza qilish masalalari bilan shug'ullanadi³. Shu o'rinda, mahalla tuzilmalarining suvdan foydalanish va muhofaza qilishdagi faoliyatini o'rganish, uning samarali ekologik faoliyat yuritish mexanizmini shakllantirish, tahlil qilish va shu asoslarda uni rivojlantirish masalalari bo'yicha fikr va xulosalar berish dolzarb muammolardandir.

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг экологик муаммоларга бағишланган видеоселектор йиғилишидаги нутқи, 2022 йил 2 февраль // <https://president.uz/uz/lists/view/4955>

²Dunyoda chuchuk suv tanqisligi. <https://hordiq.uz/2021/11/15/dunyoda-chuchuk-suv-tanqisligi/>

³ www.lex.uz

Muammoning dolzarbligi shundaki, **birinchidan**, suvdan foydalanish va muhofaza qilishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ishtirokiga oid huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalar qonun hujjatlarida aniq ifodalanmagan. **Ikkinchidan**, suvdan foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ekologik faoliyati hozirgi kunga qadar huquqshunos olimlar tomonidan yetarlicha tadqiq etilmagan. **Uchinchidan**, suvdan foydalanish va muhofaza qilishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faol ishtirokining tahminlanishi atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanilish va ekologik xavfsizlikni tahminlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, ushbu muammoni maxsus o'rganish, hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tegishli hududda suvdan foydalanish va muhofaza qilishda ishtirok etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasida suvdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda jamoat birlashmalari, jamoalar va fuqarolar ishtirok etishi belgilangan¹.

Demak, bu sohadagi ekologik faoliyatda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham ishtirok etadi.

Suvdan foydalanish va muhofaza qilishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ishtiroki quyidagilarda namoyon bo'lishi mumkin:

Birinchidan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z hududidagi yuridik shaxslarning shu sohadagi ekologik faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

Ushbu faoliyat qonun hujjatlarida quyidagicha mustahkamlangan. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasiga ko'ra, mahalla fuqarolar yig'ini qonunlarga rioya etilishi hamda boshqa qonun hujjatlari va o'z qarorlari, shuningdek shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'inining qarorlari ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.²

Ikkinchidan, yilning har choragida tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlarining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyat sohasiga kiruvchi masalalar, jumladan suvdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish yuzasidan hisobotini eshitadilar;

Bunday ekologik faoliyat "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida belgilangan bo'lib, uning talablariga ko'ra, shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini yilning har choragida tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlarining fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitadi. Fuqarolar yig'inlarining hisobotlar to'g'risidagi bayonnomalari tegishli viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga yuboriladi, ular bu bayonnomalarning hisobini yuritadilar, fuqarolarning murojaatlari bajarilishini nazorat qiladilar.³

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasi talablariga ko'ra, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari atrof muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolatlari doirasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi.⁴ Bundan ko'rinadiki, suvdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish masalalari yuzasidan mahalla tuzilmalarining o'z vakolatlari doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadilar hamda ushbu hisobotlar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qiladi.

To'rtinchidan, Fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli) fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida qonunda belgilangan tartibda tegishli organlarga taqdimnomalar kiritadi⁵. Demak, suvdan oqilona foydalanish va

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 йил, 50-51-сон, 512-модда.

² www.lex.uz

³ Ўша жойда.

⁴ Ўша жойда.

⁵ Ўзбекистон Республикаси "Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида" ги Қонуннинг

muhofaza qilish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslarning noqonuniy xatti - harakatlari ustidan mahalla tuzilmalarining raislari o'z huquqlarini himoya qilish va yetkazilgan zararlarni qoplash to'g'risida tegishli davlat organlariga taqdimnomalar kiritib, mahalliy aholining buzilgan huquq va manfaatlarini himoya qilishlari mumkin. Bunday ekologik faoliyatda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ishtiroki tahminlanadi.

Beshinchidan, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari o'z hududida suvdan foydalanish va muhofaza qilish yuzasidan tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda jamoat ekologik ekspertiza o'tkazilishini tashkil qilish va uning amalga oshirilishidagi munosabatlarda ishtirok etadi.

Bunday holatda, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning 23-moddasiga asosan, jamoat ekologik ekspertizasi ekologik asoslanishi taqozo etiladigan har qanday faoliyat sohasida nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin. Jamoat ekologik ekspertizasini amalga oshirishga to'sqinlik qilish taqiqlanadi¹. Mazkur qonunga binoan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat ekologik ekspertizasi o'tkazilganligidan qathi nazar, jamoat ekologik ekspertizasi o'tkazilishi orqali tegishli xulosalar olishi mumkin.

Bunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faol ishtirokining tahminlanishi mavjud ekologik muammolarning bartaraf qilinishiga yordam beradigan muhim omillardan biri bo'lishi mumkin.

14-моддаси. // www.lex.uz

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 5 - 6-сон.